

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
СВТ..... 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Махмудбеков Бобурмирзо

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

“MOMOTARO” YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,

“Keksalik gashti” jurnali va

“Nuroni” gazetasi mas’ul muharriri

O’zDJTU “Xalqaro jurnalistika” fakulteti magistrant

Toshkent, O’zbekiston

Annotatsiya. Maqolada yapon xalq ertaklaridan biri — “Momotaro” haqidagi rivoyat va uning turli media vositalaridagi talqinlari tahlil qilinadi. Ertakda jasorat, do’stlik, rahbarlik va adolat kabi insonparvarlik qadriyatlarini ifodalangan bo’lib, u yapon milliy madaniyatining muhim ramzlaridan biri sanaladi. “Momotaro” ertagi asosida yozuvchi Iwaya Sazanami tomonidan yaratilgan adabiy variant hamda animatsion rejissyor Mitsuyo Seoning “Momotaroning Dengiz Oqqushlari” filmi misolida ertakning zamonaviy talqini ko’rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu obrazning yapon madaniyatidagi o’rni, folklor, teatr, bolalar bayramlari va ta’lim tizimidagi ahamiyati ochib beriladi. Ertakning turli talqinlari orqali milliy qadriyatlar yangi avlod ongiga qanday singdirilayotgani va folklorning zamonaviy media orqali qayta talqin qilinishi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Momotaro, ertak, folklore, anime, film, talqin, oni (yovuz jinlar), milliy ramz.

“MOMOTARO” – A JAPANESE FOLK TALE AND ITS INTERPRETATIONS IN FILMS AND ANIME

Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,

Uzbekistan, Tashkent

Responsible editor of the magazine “Keksalik gashti” and the newspaper “Nuroni”

Master's student at the Faculty of International Journalism, UzSWLU

Annotation. This article explores one of the most famous Japanese folk tales — “Momotaro” — and its interpretations across various media formats. The tale embodies humanistic values such as bravery, friendship, leadership, and justice, making it a significant cultural symbol of Japanese national identity. The article examines the literary adaptation by author Iwaya Sazanami and the full-length animated film Momotaro: Sacred Sailors directed by Mitsuyo Seo as modern renditions of the classic story. It also highlights the cultural role of the Momotaro character in Japanese folklore, theater, children’s festivals, and the education system. Through various retellings of the tale, the article analyzes how national values are transmitted to younger generations and how traditional folklore is reinterpreted through modern media.

Key words: Momotaro, fairy tale, folklore, anime, film, interpretation, oni (evil spirits), national symbol.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-27>

“Momotaro” ertagi — Yapon xalq og’zaki ijodining eng mashhur ertaklaridan biri bo’lib, mazkur ertak jasorat, rahbarlik, do’stlik va adolat kabi insonparvarlik qadriyatlarini o’zida mujassam etgan. Ushbu ertakning markazida shaftolidan tug’ilgan bola — Momotaro turadi. Ertakning bosh qahramoni Momotaro xalqni necha yillardan beri azoblab kelayotgan yovuz jinlarga qarshi jang qilish maqsadida ularning makoni — “Onigashima” “鬼ヶ島” 鬼 (Oni) — iblis, yovuz jin, ヶ (ga) — joy nomlarida ishlatiladigan qo’shimcha, 島 (shima) — orol ga borib, hayvonlardan tashkil topgan do’stlari bilan birga yovuz maxluqlarga qarshi kurashadi. “Momotaro” nafaqat xalq og’zaki ijodining muhim qismi, balki u Yaponiya milliy

madaniyati, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini ifoda etuvchi muhim madaniy ramz hisoblanadi.

Bugunga kelib “Momotaro” ertagi turli filmlar, anime, illyustratsiyalar asosiga aylanib, yangi media vositalari orqali ham keng tarqalmoqda. Yapon yozuvchisi, bolalar adabiyotining asoschilaridan biri Ivaya Sazanami “Momotaro” haqidagi asliy rivoyatga asoslangan o‘z variantini yozgan bo‘lsa, Yaponiya animatsiyasi tarixidagi muhim shaxslardan biri, ilk yapon to‘liq metrajli animatsion film yaratgan rejissyor sifatida tanilgan Mitsuyo Seo esa “Momotaroning Dengiz Oqqushlari” nomli animatsion filmi yaratgan. Ta’kidlash joizki, ushbu asarlar klassik ertakni asl mohiyatini saqlab qolgan holda, yangi mavzular va obrazlar bilan boyitilgan va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan.

Ivaya Sazanaming talqinidagi “Momotaro” hikoyasida Momotaro orolga yo‘l olganida faqat it, maymun va tustovuq bilan do‘stlashadi. Bu hayvonlar uning rahbarlik maqomini qo‘lga kiritishiga yordam beradi va mahluqlarni yengishda ko‘maklashadi [1]. Aslida ham ertakda boshqa hayvonlar mavjud emas. Lekin Mitsuyo Seoning “Momotaroning Dengiz Oqqushlari” “桃太郎 海の神兵 (Momotaro: Umino Shinpei) filmida hayvonlar soni ko‘payib, maymunlar guruhi, itlar guruhi va qo‘yonlar guruhidan iborat jamoalar paydo bo‘ladi. Bu esa anime rejissyori tomonidan personajlarni jamoaviylikka o‘tkazish, munosabatlarni murakkablashtirish va rahbarlik mavzusini chuqurroq ochishga qaratilgan. Ushbu film Yaponiyaning birinchi to‘liq metrajli animatsion filmi hisoblanadi.

Mazkur filmda Momotaro kapitan sifatida hayvonlar bilan birga “Oniygashima” orolidagi yovuz maxluqlarga qarshi kurashadi. Yangi syujet elementlari va intertekstuallik filmning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, ular ertakning asl g‘oyasini saqlab qolgan holda yangi mazmun yaratadi. Shu tariqa, “Momotaroning Dengiz Oqqushlari” an’anaviy hikoyani zamonaviy media orqali boshqacha va kengroq talqin qiladi [2].

Kunchiqar davlatning Okayama shahri (岡山県) — “Momotaro” ertagining vatani sifatida tanilgan. Bu yerda har yili Momotaro mavzusida festivallar, karnavallar va qo‘g‘irchoq teatrlari namoyishi o‘tkaziladi. Eng qizig‘i, Yaponiyada har yili 5 may kuni nishonlanadigan “Bolalar kuni” (こどもの日) “Kodomono hi”da ota-onalar kichik yoshdagi farzandlariga ertakning bosh qahramoni bo‘lmish Momotaroning kichik ko‘rinishdagi qo‘g‘irchoqlarini yapon milliy shirinliklari bilan birga sovg‘a qiladilar. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yapon xalq ertaklarini bolalar ongiga singdirish, Momotaroni milliy ramz sifatida saqlash, ertak orqali bolalarni saxovat, jasorat, do‘stlik va yovuzlikka qarshi kurash g‘oyasida tarbiyalash. Bir so‘z bilan aytganda bu ham yapon xalq ertaklarini yosh avlodga yanada yaqinroq tanitishning yana bir targ‘ibot usullaridan biri bo‘lsa ajab emas.

Momotaro obrazi nafaqat jasorat va rahbarlik timsoli, balki yapon xalqi uchun milliy o‘ziga xoslik va ma’naviy boylikdir. Uning tug‘ilishi bilan bog‘liq “chiisako” mavzusi, inson va tabiat, inson va ruhlar olami o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni ochib beradi. Bu ramzlar yapon mentalitetining chuqur qatlamlarini anglashda muhimdir [3].

Folklorshunos olim Yanagita Kunio qaydicha, “Momotaro” ertagi orqali nafaqat yakka qahramon obrazini, balki butun xalqning milliy xarakterini, urf-odatlarini va madaniy evolyutsiyasini tushunish mumkin. Momotaroning g‘alabasi — zo‘ravonlikka qarshi kurash emas, balki hamkorlik, halollik va ezgulik bilan yovuzlikni yengish ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, Momotaroning shaftoliden tug‘ilishi ham tasodifiy emas — shaftoli yapon

an'anaviy madaniyatida hayot, poklik va yangilanish timsoli hisoblanadi. Bu esa ertakni chuqur mifologik va ruhiy qatlamlar bilan boyitib, uni oddiy bolalar ertagidan yapon xalqining qadimiy dunyoqarashini ifodalovchi kuchli madaniy fenomen darajasiga ko'taradi.

Xulosa qilib aytganda, "Momotaro" ertagi Yaponiya xalq og'zaki ijodining markaziy qismi sifatida hanuzgacha milliy ilhom manbai bo'lib qolmoqda. U nafaqat bolalar uchun axloqiy tarbiya manbai, balki xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi madaniy meroshamdir.

Bugungi kunda "Momotaro" obrazi adabiyotda, animatsiyada, teatrdan va ta'limda keng qo'llaniladi. Yangi avlodlarga milliy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Uning doimiy yangilanishi va qayta-qayta aytilishi — Momotaroning nafaqat afsona, balki milliy madaniyatning tirik, rivojlanayotgan va o'zgaruvchan timsoli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, "Momotaro"ning film va animega ko'chishi asliy hikoyani yangi formatda, yangi auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. Bu esa milliy folklorning zamonaviy media sharoitida ham ahamiyatini yo'qotmasligini va doimiy yangilanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Iwaya Sazanami. "Momotaro: A Japanese Folk Tale". Tokyo shahri. Kodansha International nashriyoti. 1988.
2. Yanagita, Kunio. "The Legends of Momotaro: Myth and Folklore in Japan". Tokyo shahri. Tokyo Universiteti. 1966.
3. Seo Mitsuyo. "Momotaro no Umiwashi" (Animatsion film) 1943.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.